



IQTISODNING MA'NAVIYATGA TASIRI

Rahmonqulov Farhod Jo'ramurod o'g'li

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada yangi O'zbekistonda iqtisodiyotning ma'naviyatga ta'siri borasida so'z yuritiladi

Kalitso'zlar: Raqobatbardosh iqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, tadbirkorlik, bozor iqtisodiyoti, ishlabchiqarish resurslari, ochiq iqtisodiytizim

KIRISH. Rivojlangan davlatlarning iqtisodiy hayotiga raqamli iqtisodiyotni joriy etish allaqachon boshlangan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi.

Yaqinda davlatimiz rahbarining “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli birinchi fundamental kitobi chop etildi. Yaqin besh yil davomida amalga oshiriladigan Taraqqiyot strategiyasining o'tgan besh yilda mamlakat hayotining barcha sohalariga tatbiq etilgan Harakatlar strategiyasiga o'xshash jihati haqida so'z borganda, mazkur strategik hujjat ham albatta keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilganidan so'nggina qabul qilinganiga e'tibor qaratish lozim. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Inson qadri uchun» tamoyilini barcha islohotlarimizning bosh mezoni sifatida belgiladik. «Davlat – inson uchun» degan ezgu g'oyani hayotga tatbiq etish maqsadida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini bevosita xalqimiz bilan maslahatlashib, odamlarimizning fikr va takliflari asosida ishlab chiqdik». Jamiyat hayotining tanasi – iqtisodiyot, joni varuhi – ma'naviya Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi yettita ustuvor yo'nalishni qamrab olgani, mohiyatiga ko'ra, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib



chiqish masalasi ana shu ustuvor yoʻnalishlardan biri etib belgilangani bilan Harakatlar strategiyasidan alohida ajralib turadi. Shu maʼnoda, ushbu dasturulamal hujjatda belgilangan maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash bilan bogʻliq maqsad-vazifalar xususida soʻz yuritish ayni muddaodir. Taraqqiyot strategiyasining boshqa oltita ustuvor maqsadi:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish – bularning barchasi maʼnaviy taraqqiyot mezonlari bilan chambarchas bogʻliq.

Bu bejiz emas. Chunki, “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot boʻlsa, uning joni va ruhi maʼnaviyatdir. Biz yangi Oʻzbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli maʼnaviyat”. Ushbu fikrlarni Prezidentimiz maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari boʻyicha 2021 yil 19 yanvar kuni oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida bildirdi. Davlatimiz rahbari mazkur yigʻilishda soʻzlagan nutqning mazmun-mohiyati va ahamiyati keyinchalik Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot



strategiyasida o'z aksini yanada yaqqol topdi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi "Inson qadri uchun 100 ta maqsad" dan iborat bo'lib, shundan 8 tasi, ya'ni 71-78-maqsadlar bevosita ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash masalalariga taalluqli hisoblanadi. Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirishga doir Davlat dasturida 398 ta band belgilangan bo'lsa, shuning 29 tasi – 257-285-bandlar aynan ma'naviyat sohasiga oid chora-tadbirlardir. Joriy yil 24-26 mart kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida Prezidentimiz iqtisodiyot va ma'naviyatning o'zaro uzviy bog'liqligi haqida yana bir bor batafsil to'xtaldi. Zero, O'zbekiston zamini ko'p asrlar davomida dunyoning turli mintaqalaridagi savdogar, ishbilarmon va tadbirkorlar e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans

Taraqqiyot strategiyasining 71-maqsadi: "Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish" deb nomlangan. Bu maqsad ijrosi doirasida joriy yilgi Davlat dasturida yetti banddan iborat vazifalar ko'zda tutilmoqda. Dastlabki vazifa "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishdir. Buning uchun ayni paytda mazkur konsepsiya va uni amalga oshirish milliy dasturini ishlab chiqishga kirishildi. Binobarin, biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan, dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shgan, adolatni qadrlaydigan xalq farzandlarimiz. Moziy shohidki, IX-XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan va Musulmon Renessansi deb nomlangan Birinchi Sharq Uyg'onish davrida ham, butun dunyoda Temuriylar davri Renessansi deya e'tirof etilgan XIV-XVI asrlardagi Ikkinchi Sharq Uyg'onish davrida ham jamiyatda e'tiqod mustahkam, ma'naviyat kuchli, insonlar dunyoqarashida ma'naviyat ustuvor, davlatchilik tuzumida ma'naviyat va ma'rifat yetakchi bo'lgan. Sharqning butun insoniyat tarixidagi nodir ijtimoiy hodisa bo'lgan har ikki Renessansi buyuk ajdodlarimizning ilm-ma'rifat va kuchli e'tiqod, diniy bag'rikenglik va insonparvarlik borasidagi ezgu g'oyalari bilan yo'g'rilgan edi.



Bu g'oyalar bizning davrimizda, O'zbekiston mustaqilligi yillarida alohida, yanada teran ma'no-mazmun kasb etib bormoqda. Har ikki Renessans davrida ilmu ijod bilan mashg'ul bo'lgan buyuk ajdodlarimiz va ulug' allomalarimiz o'zlarining yuksak ma'naviyati, sobit e'tiqodi, havas qilsa arzigulik milliy g'urur va faxr-iftixor tuyg'ulari, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan go'zal va noyob fazilatlari bilan alohida ajralib turgan.

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning mashhur "O'zbekiston" qasidasida e'tirof etilganidek:

"Temur tig'i yetmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher".

Temuriylar davri Renessansining yorqin namoyandasi bo'lmish davlat arbobi, buyuk alloma, ulug' shoir va mutafakkir ajdodimiz Alisher Navoiyning oliymaqom ma'naviyati yurtimiz asrlar osha taraqqiy topishi hamda millatimiz qadr-qimmatini olam aro yuksalishi borasida buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning mohirona davlatchilik faoliyati va harbiy jasoratidan sira kam bo'lmagan darajada ulug'vor o'rin tutadi. Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirishga doir Davlat dasturida belgilangan vazifalardan yana biri "Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" shiori ostida "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans" g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlashdir. Bu jarayonda: birinchidan, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" mavzusida plakatlarning turkumi, multimedia va boshqa zamonaviy targ'ibot mahsulotlari yaratish;

ikkinchidan, "O'zbekiston qahramonlari", "Ma'naviyat lug'ati" kitoblari taqdimotini o'tkazish; uchinchidan, "Ma'naviyat festivali"ni har yili o'tkazib borish ko'zda tutilmoqda. Shuni ham ta'kidlash kerakki, davlatimiz rahbari ma'naviyat yo'nalishidagi dolzarb vazifalarni, ma'naviy-ma'rifiy yangi Uyg'onishning ilmiy-nazariy va metodologik asosini yaratib berdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi



bo‘ladi”. Mafkura, avvalo, fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi, deganidir. Bu qadriyatlar esa xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga tayanadi. “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”, deydi Yurtboshimiz. Binobarin, ana shu sa’y-harakatlarimiz samarasi sifatida yuzaga chiqadigan ma’naviy-ma’rifiy Uyg‘onish biz bunyod etishga kirishgan Uchinchi Renessans uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Yanada aniq qilib aytganda, Uchinchi Renessansning muhim asosini ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onish tashkil etadi. Kitobsevar millat bo‘laylik! Taraqqiyot strategiyasi 72-maqsadining mavzusi: “Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish”. Shu maqsadga erishish uchun aholiga axborot-kutubxona xizmat ko‘rsatishni yanada rivojlantirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish va kitobxonlikni keng ommalashtirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Bu o‘rinda, albatta, birinchi navbatda, Prezident kutubxonasini tashkil etish va uni samarali faoliyat olib borishini ta’minlash talab etiladi. Sohoni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish tizimini joriy etish ham juda muhim.

Bundan tashqari, Davlat dasturida qayd etilgan:

- o‘zbek milliy mumtoz va zamonaviy adabiyoti namunalarini jahon tillariga sifatli o‘girishga doir tarjimonlik maktablarini rivojlantirish;
- xorijiy tillarga tarjima qilingan o‘zbek ijodkorlari asarlarini keng targ‘ib qilishni tizimli yo‘lga qo‘yish;
- jahon adabiyotining eng sara namunalarini vosita va original tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilish tizimini keng qo‘llab-quvvatlash;



- noshirlikning “print-on-demand” tajribasi hamda soha xizmat ko‘rsatuvchi vakillarining workfarm” onlayn maydonchasini shakllantirish;

- nogironligi bo‘lgan shaxslarga, shuningdek, bolalar uylari tashkil etayotgan oilalarga kitoblar to‘plami taqdim etish va “Mehr kutubxonasi” loyihasini amalga oshirishga oid vazifalarni izchil bajarish zarur.

Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda ommaviy kutubxonalar soni 400 tani tashkil etadi. Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganamiz va keng targ‘ib etamiz. Taraqqiyot strategiyasi 73-maqsadi ayni shu mavzu bilan bog‘liq istiqboldagi muhim vazifalarni o‘zida qamragan. Bunda, xususan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mo‘ljallanmoqda: birinchidan, IHT, IRSIKA, AYESKO, YuNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans” shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish; ikkinchidan, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarini xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish; uchinchidan, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. Bu haqda so‘z borganda, avvalo, Prezident Shavkat Mirziyoev shu yil 10 fevral kuni Samarqand viloyatiga safari doirasida buyuk muhaddis Imom Buxoriy qabrini ziyorat qilgani va mazkur majmua qurilishini ko‘zdan kechirganiga e’tibor qaratish lozim. Binobarin, shu kunlarda bu yerda qariyb 10 ming namozxonga mo‘ljallangan masjid, to‘rtta minora, ayvonlar barpo etilmoqda. Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston hayotining boshqa barcha sohalaridagi yutuqlari qatorida o‘zbek xalqining yuksak ma’naviyatini, boy milliy madaniy, tarixiy, ma’rifiy merosini, xususan, kitobat va xattotlik, musiqa va raqs, kino



va teatr san'ati, me'morlik va hunarmandchilik, zargarlik va kandakorlik, pazandalik va qandolatpazlik bobidagi mahoratini dunyoga keng hamda izchil targ'ib qilish taqozo etiladi.

Xulosa: Umuman olganda, xulosa qilish mumkinki, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bilimli odam e'tiqodli bo'ladi. Ma'naviyat vaksinasini har bir millatning o'zi yaratadi. Bugungi ma'naviy qashshoqlik adolatli haqiqatdir. Hozirgi kunda iqtisodiy kambag'allikni tugatish choralarini ko'ryapmiz, lekin ma'naviy qashshoqlikka barham berish borasidagi natijalarimiz bilan hali maqtana olmaymiz. Shu ma'noda, iqtisodiyot va ma'naviyat uyg'unligiga erishmog'imiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning videoselektordagi nutqlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi № PQ – 4477 sonli “2019 – 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2015 yildagi № 207 sonli Qarori.
4. Vaxrushina M. A. Strategicheskiy upravlencheskiy uchet/ M. A. Vaxrushina, M. I. Sidorova. – M.: KnoRus, 2017. -320 s.